

**Komilova O'g'iloy Davronbek qizi**

*Urganch Davlat universiteti*

*Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti*

*Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich  
talabasi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Makedonyalik Aleksondrning harbiy yurishlari geografiyasi, harbiy taktikalarini, bosib olingan hududlardagi aholiga tasiri, Aleksandrning harbiy yurishlarini o'rGANISH bugungi kun uchun nechog'lik muhim ekanligi yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan tegishli xulosalar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Anatoliya, Misrhalı, Parmenion, Makedoniya, Yunoniston, Afina, Fiva, Fessaliya va Korinf.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается география военных походов Александра Македонского, влияние военной тактики на население завоеванных регионов, а также насколько важно изучение военных походов Александра на сегодняшний день. Также по данной теме сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** Анатолия, Египет, Парменион, Македония, Греция, Афины, Фивы, Фессалия и Коринф.

**Abstract:** This article examines the geography of Alexander the Great's military campaigns, the influence of military tactics on the population of the conquered regions, and also how important it is to study Alexander's military campaigns today. Also relevant conclusions were drawn on this topic.

**Keywords:** Anatolia, Egypt, Parmenion, Macedonia, Greece, Athbes, Thebes, Thessaly and Corinth.

Makedonyalik Aleksandr Makedoniya podshosi Filipp II va uning rafiqasi Olimpiyadaning o'g'li. Aristoteldan ta'lim olgan, harbiy ishni otasidan o'rgangan.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Aleksondr Makedoniskiyning harbiy yurishlari geografik ravishda jahon tarixidagi eng katta yo'naliishlardan biri hisoblanad. U bosib olgan hududlar shimolda Makedoniya, Yunoniston, Baqtirya va janubda Misr, Eron, Hindistonga qadar borgan.

Aleksondrda shuningdek Filipp yo'q paytida davlatni boshqarish bo'yicha amaliy tajriba bor edi va Frakiya qo'zg'aloni bostirgan edi. U hattoki miloddan avvalgi 338 yildagi Xeroniya jangida otliq qo'shinlarga qomondonlik qilgan ekan.

Aleksondr harbiy yurishlarni Yunonistondan boshladi. U otasi Filippning o'limidan so'ng darhol Yunonistonga harbiy harakatlarni boshladi. Filippning dafn marosimi tugashi bilanoq Yunonistinning asosiy polislari Afina va Fivaga yurish qilishga qaror qildi.

Makedobniyada mustahkamlangach Aleksandr mil.avv. 334-yilning bahorida Osiyoga yurish boshlaydi .Uning armiyasi to'liq 37.000 kishi edi, bundan Makedoniya piyoda falanga 12.000 nafar , qo'shimcha 3000 kishilik "qirol gvardiyasi" va 18.000 kishilik otliq askarlar bor edi.

Aleksandr Osiyo tuprog'iga qadam qo'yan ilk Makedoniya podshosi bo'ladi. Forslar Aleksandrni dastlab hozirgi Turkiya hududida kutib oladilar. Ilk to'qnashuv Granik daryosi, hozirgi Ko'chabosh bo'yida, Anatoliyaning shimoli-g'arbida bo'ladi. Aleksandr askarlari Anotolyaning janubi bo'ylab g'arbg'a harakat qila boshladi va fors satrapliklari Lidya, Kariava, Lusiyani egaladi. Mil. avv. 333-yil bahorgacha Aleksandr Anatoliya markazi hozirgi Anqara, o'sha paytdagi Frigiya poytaxti Gordiyumga yetib boradi. Endi Aleksandr Kichik Osiyoning ichiga qarab - Kappadokiyaga qarab harakat boshladi, bu yerlarda yerlarda yashovchi mahaliy qabila va elatlar Eron hokimiyati ostida bo'lsalarham, mustaqillikka intilar va Eron zulmidan aziyat chekar edi, shu tufayli ular Aleksandr va uning armiyasini xursandchilik bilan kutib oladilar.

Kichik Osiyo yarimorolida, O'rtayer dengizi shimoliy-sharqiy qirg'og'idagi Iss shahri yaqinida fors podshosi Doro III va aleksandr o'rtasida dastlabki yirik jang bo'lib o'tadi. Iss jangidan keyin forslar qarshiligini yetarli miqdorda yengan yenggan Aleksandr Suriya va Finikiya tamon yo'l oladi. Bu hududa faqat Tir shahri

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

malum vaqt davomida qashilik ko'rsata oladi xalos. Amo Aleksandr qatiq qarshilika qaramasdan Tir shahrini egalaydi va shaharni vayron etadi, 30.000ga yaqin shahar aholisi qul qilib sotib yuboriladi.

Aleksandr yurishni Finikiyadan janubga qarab davom etturdi, mil.avv.332-yilda Aleksandr Misrga yurish boshlaydi.

Misrliklar Aleksandr qo'shinlarini hursandchilik bilan kutib oladilar. Misrdagi Eron satrapi Aleksondrqa qarshilik ko'rsatmaydi va kohinlar bilan uni kutib oladi. Ularning hursand bo'lishiga sabab Aleksandrning

Misr xudolariga qurbanlik qilish haqida buyruq bergenlikni va Misr kohinlaridan bu diniy marosimlar qanday bajarilishi haqida so'raganligi bo'ldi. Kohinlar Aleksandrni fir'avn deb elon qilishadi shu tariqa Aleksandr misrni o'z hududlariga qo'shib oladi.

Misrda qisqa vaqt to'xtagan Aleksandr Misrni tark etdi va Doro III bilan Gavgamela qishlog'ida bolgan jangda (mil. avv. 331-yil) Aleksandr yana g'alaba qozondi. Aleksandr Doro III ni asir ololmagan bo'lsada fors imperyasining markaziy hududlarini egaladi. Doro III ning omon qolgan askarlari Aleksandrni "Osioning shohi" deb olqishlashdi. Aleksandr Bobil, Suza va Persoplni egaladi. Bular Aleksandr uchun berilgan uch ulkan inom bo'ldi. Aleksandr Bobilga mil. avv.331-yili oktabr oyi o'rtalarida tantana bilan kirib keladi. So'ngi ahamoniy hukumdori

Doro III aval Midyaga keyin esa Baqtryaga qochib ketadi.

Mil. avv. 330- 329 yillar qishida Makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari Hinduqush dovonidan o'tib Shimoliy Baqtriya hududlariga kirib boradilar. Baqtriya satrapi Aleksandrqa qarshi yurush boshlaydi ammo yunon- makedon qo'shinlaridan yengiladi. Shundan so'ng Aleksandr Baqtriya, Aorn, Drapsak kabi qal'alarmi egallaydi. K.K.Rufning ma'lumotlariga ko'ra Baqtiryada Doro III ga qarshi fitna uvishtiriladi va u o'ldiriladi. Fitnaga boshchilik qilgan Bess o'zini Ahamoniylar podshosi deb e'lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrqa qarshi harbiy harakatlar qila olmaydi. Aleksandr Bessni zulimkor sifatida ko'rib, uni mag'lub etishga kirishdi. Bessga qarshi boshlangan bu harakat Markaziy Osiyo bo'ylab katta sayohatga aylandi.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

Mil. avv. 329- yilda Aleksandr Amudaryodan o'tib O'rta Osiyo hududiga kirib keladi ammo u bu yerda mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchraydi. Aleksandr dastlab Navtaka viloyatini ( Sharqiy Qashqadaryo) egallab, So'diyonaning poytaxti Maroqandaga ( Samarcand ) yo'l oladi.

Kiropol eramizdan avvalgi 329-yilda Aleksandr zabit etishni maqsad qilgan mintaqadagi yetti shaharning eng kattasi edi. Uning maqsadi So'g'diyonani zabit etish edi. Aleksandr dastlab Kraterni uning qo'shinlariga qarshi turgan So'g'd shaharlarining eng kattasi bo'lган Kiropolga yubordi.

Kraterning ko'rsatmalariga ko'ra, "shahar ga yaqin joyni egallab, uni ariq va to'siq bilan o'rabi oling va keyin uning maqsadiga mos keladigan qamal quollarini yig'ing". Mualliflar o'rtasida jang qanday o'tganligi haqidagi ma'lumotlar har xil. Arrian Ptolemeyning Kiropol taslim taslim bo'lганини, Arrian esa Aristobulning so'zlariga ko'ra, bu yerga bostirib kirilganligini va shahar aholisi qirg'in qilinganligini aytadi.

**Xulosa:** Aleksandr Makedonskiy o'z davrining kuchli hukmdori bo'lган. Yosh bo'ishiga qaramasdan Aleksandr yirik imperiya asoschisiga aylangan. Aynan Iskandar olib brogan harbiy yurishlar dunyo tarixida katta ahamiyatga sazovor desak adashmagan bo'lamic. U olib brogan harbiy yurishlar bosib olingen o'lkalardagi tarixiy o'zgarishlarga sabab bo'lган. Tarixchilar Iskandar haqida turli qarasharga va fikrlarga ega bo'lib ularning fikrlari o'zaro solishtirishlarga qarab o'zgarib boradi. Makedoniyaik Aleksandr davlati va harbiy yurishlari to'risida bugungi kunda ham izlanishlar davom etirilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1.D. Urakov, R. Tursunov, A. Biykuziyev, B. Xaynazarov – “ Jahon Tarixi”, “ Innovatsiya – Ziyo” Toshkent 2020. 195220-betlar.

2.A. Kabirov- “ Qadimgi Sharq Tarixi”, “ Tafakkur” Toshkent 2016. 276-280 betlar.

3.R. Rajabov – “ Qadimgi Dunyo Tarixi”, “ Fan va texnologiya “ Toshkent 2009. 289-bet.

4.Q. usmnov, M. Sodiqov, S. Burxonova – “ Iqtisod Moliya” Toshkent 2016. 44-48 betlar.

5.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.